

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА
МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

АЛ-ХОРАЗМИЙ НОМЛИ УРГАНЧ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ДАВЛАТ СТАТИСТИКА
ҚЎМИТАСИ**

**КАДРЛАРНИ ҚАЙТА ТАЙЁРЛАШ ВА
СТАТИСТИКА ТАДҚИҚОТЛАРИ МАРКАЗИ**

ТОШКЕНТ ДАВЛАТ ИҚТИСОДИЁТ УНИВЕРСИТЕТИ

ТОШКЕНТ АРХИТЕКТУРА ВА ҚУРИЛИШ ИНСТИТУТИ

ТОШКЕНТ АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ УНИВЕРСИТЕТИ

**“ХУДУДНИ ИЖТИМОИЙ-ИҚТИСОДИЙ
РИВОЖЛАНИШИНИНГ СТРАТЕГИЯСИНИ
ИШЛАБ ЧИҚИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ”**

мавзусидаги республика илмий-амалий анжумани

МАТЕРИАЛЛАРИ ТЎПЛАМИ

**2-жилд
2015 йил 20 ноябрь**



Урганч – 2015

МУНДАРИЖА

Бет-
лар

3-СЕКЦИЯ. ХУДУДДА ТУРИЗМ СОҲАСИНИ БАРҚАРОР ВА МУТАНОСИБ РИВОЖЛАНТИРИШ СТРАТЕГИЯСИНИ ИШЛАБ ЧИҚИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ

T.Do'schanov, B.Ro'zmetov. Tarixiy muzeylar tizimi – mintaqa turizmining ajralmas qismi	3
F.Abdullayev, Sh.Abdurazzakova. Mamlakat xizmat ko'rsatish tarmoqlarida kichik biznesning rivojlanishi	5
F.Abdullayev, R.Salayev. Xorazm viloyatining turistik salohiyati	7
У.Матякубов. Минтақа туризм салоҳиятини оширишда ахборот-коммуникация технологияларининг ўрни	9
Д.Худайберганов, М.Аминова. Xorazm viloyatida turizm sohasini samarali boshqarishni takomillashtirish yo'llari	11
И.Маткаримов. Минтақада туризм хизматлар бозорида реклама фаолиятини ривожлантириш.	12
Г.Алиева, С.Рузметова. Хоразм вилоятидада туризм инфратузилмасининг ривожланиши.	14
D.Bekjanov. Xorazm viloyatida turizm sohasini moliyalashtirish yo'nalishlari.	16
D.Matyoqubova, X.Yo'ldashev. Mehmonxona xo'jaligining turizm industriyasida tutgan o'rni.	18
Ш.Бахтиёр. Хива - минтақада туризм кластерини шакллантириш манбаи.	20
Г.Алиева, А.Закиров. Ўзбекистонда туризмни ривожлантириш омиллари.	22
M.Raxmatullayeva. O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish mezonlari mutafakkir olim va ulamalarimizning hayoti va ijodini o'rganishdir.	24
B.Ro'zmetov. Mintaqa turizmini rivojlantirishda tarixiy muzeylar faoliyatiga axborot texnologiyalarini jalb qilishning ustuvir yo'nalishlari.	26
S.Fozilova, G.Tursunova. Turistik mahsulotlar tarkibida o'zbek milliy o'yinlari yangi animatsion dastur sifatida.	28
F.Abdullayev, F.Avezova. Xalqaro turizmning yetakchi jahon mamlakatlaridagi rivojlanish xususiyatlari.	30
Д.Худайберганов, М.Аминова, Л.Салаева. Иқтисодиётда туризм соҳасини жадаллаштириш тажрибаси.	32
М.Аминова, Л.Салаева. Туристик ресурслардан фойдаланиш омиллари ва уларнинг муҳим жиҳатлари.	33

4-СЕКЦИЯ. ХУДУДНИ ИЖТИМОЙ-ИҚТИСОДИЙ РИВОЖЛАНТИРИШ СТРАТЕГИЯСИНИ ИШЛАБ ЧИҚИШ ВА АҲОЛИ БАНДЛИГИНИ ОШИРИШДА КИЧИК БИЗНЕС ВА ХУСУСИЙ ТАДБИРКОРЛИКНИНГ ИМКОНИЯТЛАРИ

Н.Узоқов, Л.Элмурадова. Аҳолини иш билан бандлигини таъминлашда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликнинг роли	35
Х.Абдуллаев. Ф.Кенэнинг иқтисодий таълимотида унумли меҳнат назариясининг шаклланиши	37
Б.Таджиев, А.Илёсов, М.Рустамова. Тежамкорлик - иқтисодий ўсишнинг асоси	38
S.Matkuliyeva, K.Atabayeva. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida asosiy vositalardan samarali foydalanish tahlilining ba'zi masalalari	40
С.Рахимова, Г.Закирова. Минтақада кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни ривожлантириш	42

XORAZM VILOYATINING TURISTIK SALOHIYATI

F.Abdullayev (turizm kafedrasi mudiri), R.Salayev (4-bosqich talabasi, UrDU)

Xorazm viloyati O'zbekistonning shimoli-g'arbiy qismida, Amudaryoning quyi oqimida joylashgan. Viloyat shimoldan Qoraqalpog'iston Respublikasi bilan, janubdan Turkmaniston bilan, shimoli-sharqdan Buxoro viloyati bilan chegaradosh. Iqlimi – keskin kontinental. Viloyat 10 ta tumanga bo'lingan bo'lib, umumiy hududi 6,05 ming km²ni tashkil etadi. Aholisi 2015-yil 1-yanvar holatiga 1,715 mln. kishini tashkil etgan va shundan 35 foizi shaharlarda, 65 foizi qishloq joylarda istiqomat qiladi. Markazi – Urganch shahri (aholisi 146 ming kishi).

Xorazm vohasi vatanimizda alohida o'ziga xos o'ringa ega. Xorazmning qadimiy tarixi, boy madaniy me'roslari, urf-odatlar, fan ta'lim taraqqiyotida tutgan o'rni va go'zal tabiati hech kimni bee'tibor qoldirmaydi. Ayniqsa, qadim-qadimdan buyon shakllanib kelgan davlatchilik yo'nalishidagi xususiyatlari nafaqat xalqimizni balki butun dunyo hamjamiyatini lol qoldiradi. Shuningdek, bu vohada qadimgi davrlardan buyon: 1) zardo'shtiylik diniga va Avesto ta'limotiga asos solinganligi; 2) "Matematika" "Algebra", "Astronomiya", "Geografiya" kabi fanlar rivojiga ulkan hissa qo'shgan al-Xorazmiy, al-Beruniy kabi buyuk siymolarni shu yurtidan yetishib chiqqanligi; 3) bu yerda azal-azaldan Ma'mun akademiyasining faoliyat yuritib kelayotganligi; 4) Chingizxon kabi ko'plab bosqinchilardan ona yurtini munosib himoya qilib, mardligi, bahodirligi va jangovar mahorati bilan ularni lol qoldirgan Pahlavon Mahmud, Jaloliddin Manguberdi kabi xalq qahramonlarining siymosi va mehnatkash xalqining yaratuvchanlik qobiliyati butun dunyo xalqi va olimlarini hayron qoldirib kelmoqda.

Bir so'z, ya'ni Yurtboshimiz ta'birlari bilan gapirganda, "Agarki mendan haqiqiy qahramonlik namunasi nima, deb so'raganda, xorazmlik oddiy dehqonning har kunlik mehnati – qahramonlik, deb javob bergan bo'lar edim", degan so'zlari bilan ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

Xorazm viloyatining bugungi kundagi turizm salohiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

♦ Viloyatda 255 ta madaniy meros obyekti, shu jumladan, 18 ta arxeologiya yodgorligi, 133 ta me'morchilik yodgorligi, 66 haykaltaroshlik yodgorligi, 6 tasi diqqatga sazovor joylar va 32 muqaddas joylardir.

♦ Bugungi kunda dunyoning 70 dan ortiq davlatidan yiliga 55 mingga yaqin faqatgina xorijiy turistlar viloyatga tashrif buyuradi;

♦ Turizm xizmatlarining yillik eksport hajmi 10 mln. AQSH dollarini tashkil etadi;

♦ Turizm sohasida 40 tadan ortiq korxona, shundan 33 ta mehmonxona va 9 ta turfirmam hamda boshqa ko'plab servis xizmati sub'etlari faoliyat yuritmoqda.

1-jadval

2013-yilda mintaqalar bo'yicha dam olish tashkilotlari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari¹

Hududlar	Dam olish tashkilotlari soni, birlik	Ularda mavjud o'rinlar soni, birlik	Xizmat ko'rsatilgan rezidentlar
O'zbekiston Respublikasi	216	34309	258251
Qoraqalpog'iston Respublikasi	8	883	2885
Andijon viloyati	4	306	1404
Buxoro viloyati	2	162	366
Jizzax viloyati	8	442	6651
Qashqadaryo viloyati	15	4430	34346
Navoiy viloyati	1	292	1984
Namangan viloyati	10	551	2240
Samarqand viloyati	9	1743	6636
Surxondaryo viloyati	12	2108	29010
Sirdaryo viloyati	2	270	2758
Toshkent viloyati	100	16256	119162
Farg'ona viloyati	8	1281	6343
Xorazm viloyati	16	1920	5644
Toshkent shaxri	21	3665	38822

Ichki turizmni rivojlantirishda viloyatda mavjud dam olish tashkilotlarning rivojlanganligi, xususan, ularning soni muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada Xorazm viloyati Respublika mintaqalari orasida yuqori o'rinni egallaydi (1-jadval).

Jadval ma'lumotlaridan shu narsa ma'lumki, Xorazm viloyati mavjud 14 ta mintaqada ichida dam olish tashkilotlari soni bo'yicha 3 o'rinni, ularda mavjud o'rinlar soni bo'yicha 6 o'rinni va xizmat ko'rsatilgan rezidentlar soni bo'yicha esa 7 o'rinni egallagan.

Viloyat turizm sohasining quyidagi jihatlarini alohida ta'kidlash lozim:

1. Viloyatda turizm soxasida 15 ming nafardan ortiq fuqarolar band bo'lib, ularni bir necha barobarga oshirish imkoniyatlari mavjud.

2. Xorijiy turistlarning viloyatda bo'lishi qariyb 1,5 sutkani tashkil etadi, o'rtacha bir kunlik xarajatlari esa 130 AQSH dollaridan ortiq.

3. Mavjud mehmonxonalarning yillik o'rtacha band bo'lish ko'rsatkichi 40–45 foizni tashkil etgan bir paytda, turizm mavsumda xizmat ko'rsatuvchi mehmonxonalarda joy etishmasligi kuzatiladi.

¹ Туризм в Узбекистане – 2013. Статистический сборник. Ташкент, 2014, с. 25.

4. Turizm infrastrukturasi, ya'ni avtotransport vositalari, mehmonxonalar, restoran va boshqa xizmat turlariga bo'lgan talab yuqori bo'lib, ushbu sohalarga investitsiyalar yo'naltirilishi katta iqtisodiy samara keltiradi.

Viloyatning Urganch shahri, Xiva, Yangiariq, Bog'ot, Hazorasp va Shovot tumanlarida joylashgan madaniy meros obyektlaridan samarali foydalanish uchun amalga oshirish lozim bo'lgan chora-tadbirlar:

- maqbaralar atrofini obodonlashtirish va sanitariya holatini tartibga keltirish;

- maqbaralarga etib borgunga qadar bo'lgan yo'llarni tartibga keltirish, maishiy xizmat ko'rsatish obyektlarini (do'kon, oshxona, hojatxona va boshqalar) tashkil etish;

- mahalliy va xorijiy sayohatchilar ziyoratlarni to'la-to'kis amalga oshirishlari uchun barcha qulay shart sharoitlarni yaratish;

- madrasalarga rekonstruksiya qilish, obodonlashtirish va sanitariya holatini tartibga keltirish;

- madrasalarga etib borgunga qadar bo'lgan yo'llarni tartibga keltirish, maishiy xizmat ko'rsatish obyektlarini (hunarmandlar rastasi, do'kon, oshxona, hojatxona va boshqalar) tashkil etish;

- “gandimyon sulhi”ga oid hujjatlar, suratlar va ashyoviy materiallarga asoslanib, muzey tashkil etish hamda ushbu materiallar asosida hujjatli film yaratib, mazkur madrasada ko'rsatishni tashkil etish;

- muzeylarni milliy ruhda rekonstruksiya qilish, atrofini obodonlashtirish va sanitariya holatini tartibga keltirish;

- muzeyga yetib borgunga qadar bo'lgan yo'llarni tartibga keltirish, maishiy xizmat ko'rsatish obyektlarini (do'kon, oshxona, hojatxona va boshqalar) tashkil etish;

- muzeylarning tomoshalar zalida milliy urf-odatlar, qadriyatlar, an'analar, to'y-marosimlari va milliy bayramlarimizning o'tkazilishini teatrlashtirilgan holda ko'rsatish hamda milliy kiyimlar galereyasi va ko'rgazmalarini tashkil etish.

МИНТАҚА ТУРИЗМ САЛОҲИЯТИНИ ОШИРИШДА АХБОРОТ-КОММУНИКАЦИЯ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИНГ ЎРНИ

У.Матякубов (иқтисодиёт кафедраси мудири, УрДУ)

Хоразм вилоятининг туристик имкониятларини яна-да ривожлантириш ва улардан фойдаланиш самарадорлигини яна-да ошириш, ҳудуднинг замонавий туристик инфратузилмасининг жадаллаштирилган ривожланиши ва кўрсатилаётган туристик, меҳмонхона ва транспорт хизматларининг сифатини ошириш орқали чет эл ва маҳаллий туристлар ноёб тарихий-маданий ва меъморий мерос билан кенг танишишлари учун энг қулай шароитларни яратиш ҳамда янги иш ўринларини ташкил этиш ва вилоят аҳолисининг даромадларини оширишга хизмат қилади.